

## “BOKSCHILAR TAYYORGARLIGINI IJTIMOIIY PEDAGOGIK JIHATLARI”

**Turdiqulov Vohobjon Asadulla o‘g‘li**

Buxoro davlat universitetining pedagogika instituti

Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi va metodikasi

2 - bosqich magistranti

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada bokschilarni tayyorgarligini ijtimoiy pedagogik jihatlari, mamlakatimizda sodir bo‘layotgan ijtimoiy va iqtisodiy o‘zgarishlar, uzluksiz ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar yoritib berilgan. Shuningdek maqolada muallif tomonidan qator izlanishlar o‘z ifodasini topgan.

**Kalit so‘zi:** Sport, boks, “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun, “Olimpiya va Paralimpiya o‘yinlariga O‘zbekiston sportchilarining tayyorgarlik ko‘rishi to‘g‘risida”gi qaror.

**Аннотация:** В данной статье освещаются социально-педагогические аспекты подготовки боксеров, социально-экономические изменения, происходящие в нашей стране, реформы, осуществляемые в системе непрерывного образования. Также в статье выражен авторский поиск.

**Abstract:** This article, the socio-pedagogical aspects of training of boxers, social and economic changes taking place in our country, reforms implemented in the continuous education system are highlighted. Also, the author’s research is expressed in the article.

Mustaqillik yillarida jismoniy tarbiya va sportga davlat siyosati darajasida bo‘layotgan katta e‘tiborni kuchaytirilishi mamlakatimizda sportni yanada rivojlanishiga asos bo‘ldi. Sportchilarimiz Osiyo hamda jahon miqyosidagi musobaqalarda ishtirok etib yaxshi natijalarga erishdi. O‘zbekiston bayrog‘ini yuqori ko‘tarib dunyoga tanitishda o‘zlarini munosib xizmatlarini qo‘shmoqda.

Mamlakatimizda sodir bo‘layotgan ijtimoiy va iqtisodiy o‘zgarishlar, uzluksiz ta‘lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”, “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonunning ijrosini bajarish hamda Respublikamiz Prezidentining “Olimpiya va Paralimpiya o‘yinlariga O‘zbekiston sportchilarining tayyorgarlik ko‘rishi to‘g‘risida”gi qaror va farmonlarida sportchilar bilan ishlovchi murabbiylar va mutaxassislarning uzluksiz ta‘limni rivojlantirish hisobiga sport sohasidagi kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirib borish, zamonaviy ilmiy-uslubiy ta‘lim texnologiyalarini joriy etishga yanada ko‘proq e‘tibor qaratish kerakligi masalasiga qayta-qayta to‘xtalmoqda. Bu esa oliy ma‘lumotli mutaxassislarni tayyorlash va tarbiyalash, kasbiy pedagogik mahoratini muntazam oshirib borish muammosini chuqur anglashga undaydi. Mamlakatimizda mustaqillik yillaridan boks sport turi nafaqat o‘z mavqeini mustahkamladi, balki butun dunyoga o‘zbek boks maktabi mavjudligini isbotladi hamda namoyon etdi. O‘zbek bokschilarining yirik xalqaro musobaqalar va Olimpiya o‘yinlarida erishib kelayotgan yutug‘lari fikrimiz dalilidir.

O‘zbek bokschilarining erishgan yuksak o‘rinlarini saqlab qolish uchun boks mashg‘ulotlariga ko‘p sonli iqtidorli yoshlarni jalb qilish va boks sport turbo‘yicha etakchi mamlakatlarning tayyorgarlik harakatlari texnikasining o‘ziga xos xususiyatlarini xisobga olgan holda ilmiy – uslubiy adabiyotlarni yaratish zarur.

Prezidentimizning 2021-yil 29-apreldagi “Boksni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori o‘zbek boksini yangi bosqichda rivojlantirish, yanada sharaflı yutuqlarni qo‘lga kiritish, yurtimizning xalqaro maydondagi nufuzini bundanda oshirish yo‘lida muhim huquqiy asos bo‘ldi, deyish mumkin.

Jismoniy tarbiya va sport sohasini yangi bosqichga olib chiqish, uning taraqqiyotini ta'minlash borasida so'nggi yillarda o'ta muhim qaror va farmon, konsepsiya, dasturlar qabul qilindi. Beshta muhim tashabbus, O'zbekiston sportini 2019-2021-yillarda rivojlantirish konsepsiyasi, turizm va sport tizimini takomillashtirish, aholini ommaviy sport tadbirlariga keng jalb etish kabi davlat ahamiyatiga molik qator hujjatlar shular jumlasidan.

Biz o'tgan yillar mobaynida aynan shu hujjatlar asosida ish olib bordik va muayyan natijalarga erishdik. 2019-yilgi jahon chempionatida, Olimpiya saralash musobaqalarida va boshqa xalqaro sport tadbirlarida erishgan yutuqlarimizning tub negizi mazkur hujjatlar ijrosidir, deyish mumkin.

Prezidentimizning "Boksni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori tom ma'noda yangi g'alabalar, o'zbek boksining jahondagi obro'-e'tiborini yanada mustahkamlash uchun muhim hujjat bo'lib xizmat qiladi. Bunday deyishimizga sabab shuki, 2016-yilgi Rio-de-Janeyro Olimpiadasigacha O'zbekiston boks federatsiyasi doimiy tarzda terma jamoani shakllantirish bo'yicha ish olib borardi. Murabbiy va mutaxassislar katta bosim ostida ishlardi. Terma jamoalarga nomzodlarni saralash uchun musobaqalar o'tkazishda har yili yangicha tartib-qoidalarni joriy etish, izlanish qilish maqsadida sport sohasi rahbariyatiga takliflar kiritardik. O'z navbatida, ular buning qonuniy asosini talab qilardi, biz esa boksdagi kuchli sportchilarni tanlashda yangicha tartiblarni joriy etishni istardik. Mazkur hujjat biz orzu qilgan jihatlarga to'la mos bo'lib, terma jamoaga har tomonlama salohiyatli sportchilarni tanlash mexanizmi joriy etilishiga zamin hozirladi.

Qayd etish joizki, 2020-yilgi epidemiologik vaziyatga qaramay, yil davomida 20 ga yaqin -ommaviy boks musobaqasi tashkil etildi va ularda 4 mingga yaqin sportchi qatnashdi. O'zbekistonda boks bo'yicha murabbiylik faoliyati bilan shug'ullanuvchilar soni 1,5 mingdan oshdi. Ammo bu juda kam. Shunday bo'lsa-da, murabbiy va mutaxassislarimiz doimiy izlanishda. O'tgan yili Qoraqalpog'iston Respublikasi, Qashqadaryo va Navoiy viloyatlarida federatsiyamiz bo'limlari tashkil etildi. Ularga tajribali murabbiylar, sportchilar birlashtirildi. Qashqadaryo, Navoiy, Jizzax viloyatlari

yoshlari uchun jahon va Olimpiya o‘yinlari chempionlari bo‘lgan taniqli sportchilarimiz Muhammadqodir Abdullayev, O‘tkirbek Haydarov, Fazliddin G‘oyibnazarov va Iqboljon Xoldorov doimiy o‘quv-mashg‘ulot yig‘inlari o‘tkazib kelmoqda.

Mahoratli sportchini kamolga yetkazishda uchta muhim bo‘g‘in mavjud. Maktab — oliy mahorat maktabi — terma jamoa. Shu paytgacha bu ketma-ketlikda uzilishlar mavjud edi. Endigina boks zaliga kirib kelgan bolani oliy mahorat maktabiga yetmasdan yo‘qotib qo‘yardik. Yoki oliy o‘quv yurtlarining jismoniy madaniyat fakultetida boks mutaxassisligi yo‘nalishida o‘qiyotgan bo‘lg‘usi kadrlarni keyinchalik “topolmay” qolardik. Bir so‘z bilan aytganda, mazkur hujjat O‘zbekiston boks oilasi taraqqiyotini yagona bir tuzilma ko‘rinishiga olib kelishni belgiladi.

Kelajakda boks to‘garagiga qadam qo‘yib, toki katta hayot maktabiga uchirma bo‘lguncha va undan keyingi faoliyati davomida ham u o‘zbek boksining yagona elektron bazasida qayd etib turiladi. Boshqacha aytganda, hayotini boks bilan bog‘lagan sportchi bo‘ladimi, bo‘lg‘usi boks murabbiyi yoki mutaxassisimi, uning sport ko‘rsatkichlari doimiy tarzda kuzatilib, tahlil etib boriladi.

Bugun O‘zbekistonda boksni rivojlantirishga yo‘naltirilgan 266 sport ta’limi muassasasi faoliyat yuritadi. Shundan 230 tasi bolalar-o‘smirlar sport maktabi, 13 tasi sportning yakkakurashga ixtisoslashtirilgan bolalar va o‘smirlar sport maktabi, 15 tasi ixtisoslashtirilgan olimpiya zaxiralari maktab-internati, 8 tasi olimpiya va milliy sport turlari bo‘yicha ixtisoslashtirilgan maktab-internat.

Boks jangovar va tartib-intizomga asoslangan sport turi. Bundan tashqari, yillar mobaynida O‘zbekiston boks maktabida ustozlardan shogirdlarga, katta shogirdlardan kichik bokschi'larga o‘tib kelayotgan an‘ana — kattani hurmat qilish, ustozlar o‘gitiga amal qilish tamoyili doimo ustuvor bo‘lib kelgan. Hurmat va e‘tibor, bir-birini qadrlash kabi azaliy qadriyatlar boks murabbiylari, mutaxassislarining qon-qoniga singib ketgan. Qolaversa, mashg‘ulotlardagi, musobaqalardagi tartib-intizom, tinimsiz izlanishlar xalqaro maydondagi yutuqlarimizga poydevor bo‘lib kelmoqda.

Mamlakatimizda boksning bugungi rivojlanish tendensiyasi unga faqat ommalashgan sport turi sifatida emas, balki mamlakat aholisi, ayniqsa, yoshlarni sogʻlom turmush tarziga oʻrgatuvchi, ruhiy-maʼnaviy jihatdan irodali, matonatli etib tarbiyalash orqali ona Vatanga sadoqat tuygʻularini shakllantiruvchi noyob vosita sifatida eʼtibor qaratishni taqozo etmoqda.

Zero, yurtimizda boks infratuzilmasini moddiy-texnik jihatdan yana-da yaxshilash hamda xalqaro talablarga moslashtirish Oʻzbekistonning jahon maydonidagi imiji yuksalishiga xizmat qiladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI: (REFERENCES)**

1. R.D.Xalmuxammedov, V.N.Shin, F.K.Turdiyev, S.S.Tajibayev BOKS NAZARIYASI VA USLUBIYATI
2. R.D.Xalmuxammedov, V.N.Shin, S.S.Tajibayev, Gʻ.Q.Rajabov, V.D.Anashov BOKSCHILARNING SPORT-PEDAGOGIK MAHORATINI OSHIRISH.
3. Poʻlatov Jamshid Abdumajidovich SPORTCHILARNI PSIXOLOGIK TAYYORLASH